



VASIYLIK VA HOMIYLIK INSTITUTINING HUQUQIY TAHLILI VA AMALIYOTDAGI MUAMMOLARI

Mualliflar: Raxmonova Rayxona Nabijon qizi
Xolmirzayeva Sevinch Jumanazarovna

Annotatsiya:

Mazkur maqolada vasiylik va homiylik institutining huquqiy mohiyati, uning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari o'rganiladi. Vasiylik va homiylikning amaldagi qonunchilikdagi o'rni, asosiy tamoyillari va ularni amalga oshirishdagi muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliyotdagi mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: Vasiylik, homiylik, huquqiy tahlil, amaliyot, muammolar, qonunchilik, ijtimoiy himoya.

Annotation:

This article examines the legal nature of the institution of guardianship and trusteeship, its formation, and stages of development. The place of guardianship and trusteeship in current legislation, their main principles, and the problems encountered in practice are analyzed. Moreover, proposals for eliminating existing shortcomings in practice are provided.

Keywords: Guardianship, trusteeship, legal analysis, practice, problems, legislation, social protection.

Аннотация:

В данной статье изучаются правовая сущность института опеки и попечительства, этапы его становления и развития. Анализируется место опеки и попечительства в действующем законодательстве, основные принципы и проблемы их реализации на практике. Также предлагаются рекомендации по устранению существующих недостатков в практике.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

Ключевые слова: Опека, попечительство, правовой анализ, практика, проблемы, законодательство, социальная защита.

Inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy adolatni ta'minlash davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Jamiyatda turli sabablarga ko'ra o'z huquq va manfaatlarini mustaqil amalga oshirolmaydigan shaxslar mavjud bo'lib, ularning huquqiy himoyasini ta'minlash uchun vasiylik va homiylik instituti tashkil etilgan. Ushbu institut o'z mohiyatiga ko'ra, yetim bolalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda o'zini boshqarish qobiliyatidan mahrum bo'lgan shaxslarning manfaatlarini himoya qilishni maqsad qiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida Vasiylik va Homiylik Sohasiga Oid bir qator Prezident Farmonlari va Qarorlarini keltirib o'tadigan bo'lsak:

"Bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida."¹ Ushbu farmonda yetim bolalar va ota-onasining g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish choralari belgilangan. Vasiylik va homiylik tizimini isloh qilish, davlat nazoratini kuchaytirish vazifalari belgilangan.

"Bolalarni himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va bu boradagi faoliyatni muvofiqlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida."² Qarorda vasiylik va homiylik organlarining faoliyatini takomillashtirish, bolalar huquqlarini himoya qiluvchi maxsus inspeksiya tashkil etish belgilangan. Vasiylik organlari faoliyatini elektron monitoring qilish tizimi joriy etilishi ko'zda tutilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-oktabrdagi PF-5869-sonli Farmoni Lex.uz

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-fevraldagi PQ-5003-sonli Qarori Lex.uz



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

"O'zbekiston Respublikasida yetim bolalar va ota-onasining g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida."³

Strategiyada vasiylik va homiylik tizimini modernizatsiya qilish, har bir bolaning oilaviy muhitda tarbiya topishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsad qilingan.

Homiylikni kengaytirish va davlat-hususiy sheriklik asosida yangi model joriy qilish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik munosabatlari fuqarolik qonunchiligi, xususan, Fuqarolik kodeksi va "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi qonun asosida tartibga solinadi. Ammo amaliyotda ushbu institutning samarali faoliyat yuritishida bir qator muammolar kuzatilmoqda. Tadqiqot davomida vasiylik va homiylik institutining huquqiy asoslari, amaliy muammolari hamda ularni bartaraf etish yo'llari o'rganiladi.

O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik munosabatlari fuqarolik qonunchiligi, xususan, Fuqarolik kodeksi va "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi qonun asosida tartibga solinadi. Ammo amaliyotda ushbu institutning samarali faoliyat yuritishida bir qator muammolar kuzatilmoqda. Tadqiqot davomida vasiylik va homiylik institutining huquqiy asoslari, amaliy muammolari hamda ularni bartaraf etish yo'llari o'rganiladi.

1. Vasiylik va homiylik institutining huquqiy asoslarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ko'ra:

Vasiylik — 14 yoshga to'lmagan shaxslar va sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar ustidan o'rnatiladi.

Homiylik — 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar hamda muomalaga qisman layoqatsiz deb topilgan shaxslar ustidan amalga oshiriladi.

Vasiy va homiylik shaxsiy va mol-mulk huquqlari bilan bog'liq masalalarda tarbiyalanuvchilar manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi.

- Amalda esa quyidagi asosiy muammolar uchraydi:

Vasiylar va homiylarning majburiyatlarini lozim darajada bajarmasligi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PQ-187-sonli Qarori Lex.uz



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

Nazorat tizimining sustligi va monitoringning yetarli emasligi.

Vasiylik/homiylik bilan bog'liq huquqiy savodxonlik darajasining pastligi.

Huquqbuzarlik holatlarini aniqlash va oldini olish mexanizmlarining zaifligi.

O'zbekiston Respublikasining vasiylik va homiylik institutlarini boshqa davlatlar tajribasi bilan taqqoslasak:

AQSh:

Vasiylik va homiylik tizimi maxsus oilaviy sudlar va bolalar xizmatlari agentliklari orqali qat'iy nazorat qilinadi.

Har yili vasiy va homiylik hisobot topshiradi, ularning faoliyati mustaqil organlar tomonidan baholanadi.

Germaniya:

Vasiylik va homiylik funksiyalarini asosan davlat organlari yoki ixtisoslashgan notijorat tashkilotlar amalga oshiradi.

Vasiy yoki homiy tayinlashdan oldin ular haqida keng qamrovli tekshiruv o'tkaziladi (psixologik va moliyaviy holatlari baholanadi).

Rossiya:

Vasiylik va homiylik organlari mahalliy hokimiyat tarkibidagi alohida bo'lim sifatida faoliyat yuritadi.

Yetim bolalar sonining kamayishi uchun oilaviy tarbiyani rag'batlantirish dasturlari mavjud.

O'zbekiston bilan taqqoslaganda, rivojlangan davlatlarda vasiylik va homiylik faoliyati ustidan nazorat kuchliroq va shaffofroq ekanligi ko'rishimiz mumkin.

Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025



O'zbekiston (2024-yil ma'lumotlariga ko'ra): Vasiylik va homiylikdagi bolalar soni: 18 400 nafar. Ularning 64% i qarindoshlari tomonidan vasiylikka olingan. 36% holatlarda esa vasiylik davlat tomonidan tayinlangan shaxslar zimmasiga yuklatilgan. Vasiylik/homiylik organlari tomonidan aniqlangan huquqbuzarlik holatlari soni: yiliga o'rtacha 250–300 ta.

Boshqa davlatlarda esa :

MAMLAKAT	Qarindoshlari tomonidan vasiylik	Davlat tayinlagan vasiylar
AQSH	32-35%	65-68%
GERMANIYA	42-45%	55-58%
ROSSIYA	55-60%	40-45%



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tadqiqot natijalariga ko'ra, vasiylik va homiylik instituti O'zbekistonda huquqiy asoslar bilan ta'minlangan bo'lsa-da, amaliyotda tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Vasiylik va homiylik institutining samarali faoliyat yuritishi uchun nazorat va monitoring mexanizmlari yetarli darajada ishlamayapti, vasiy va homiylarning huquqiy savodxonligi va javobgarlik darajasi pastligicha qolmoqda. Boshqa davlatlar tajribasi (AQSh, Germaniya, Rossiya) shuni ko'rsatadiki: Vasiy va homiylarni tayinlashda qat'iy tekshiruv tizimi mavjud, har chorakda yoki har yarim yilda muntazam ravishda faoliyat tekshiriladi, vasiy va homiylarga doimiy o'quv kurslari va psixologik yordam ko'rsatiladi, bolalarning huquqlarini mustaqil himoya qiluvchi agentliklar faoliyat yuritadi. O'zbekistonda esa nazorat kamroq, vasiy va homiylar faoliyati ko'p hollarda yuzaki tekshiriladi va malaka oshirish tizimi yetarli rivojlanmagan. Demak, vasiylik va homiylik institutining rivojlanishi uchun qonunchilik asoslari mavjud bo'lsa-da, amaliy tizimni takomillashtirish zarurati dolzarb bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib takliflar beradigan bo'lsam:

1. Vasiy va homiylarni tayinlashdan oldin chuqur tekshiruv o'tkazish:

Ularning moliyaviy holati, psixologik holati va ijtimoiy faolligi majburiy tartibda o'rganilishi kerak (Germaniya tajribasi asosida).

2. Elektron monitoring va hisobdorlik tizimini yaratish:

Vasiy va homiylar faoliyati elektron shaklda monitoring qilinishi va har chorakda hisobot topshirishlari shart bo'lishi lozim (AQSh tajribasi asosida).

3. Majburiy malaka oshirish kurslari tashkil etish:

Vasiy va homiylar uchun bolalar huquqlari, pedagogika va psixologiya bo'yicha qisqa muddatli kurslarni tamomlash majburiy qilinishi zarur.

4. Maxsus nazorat organlarini kuchaytirish:

Har bir tuman yoki shaharda bolalarni himoya qilish inspektorlari faoliyatini kengaytirish va ular orqali muntazam tekshiruvlar o'tkazish.

5. Jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish:

Vasiylik va homiylik sohasida ommaviy axborot vositalari va nodavlat tashkilotlarni monitoringda faol jalb etish.

6. Ilg'or xorijiy tajribalarni milliy tizimga moslashtirish:



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

Xususan, AQSh va Yevropa mamlakatlaridagi oilaviy tarbiya va homiylik dasturlarini o'rganib, O'zbekistonda pilot loyihalar sifatida joriy etish.

7. Vasiylik va homiylik faoliyatini rag'batlantirish tizimini joriy etish:

Yil yakunida namunali faoliyat ko'rsatgan vasiy va homiylarni davlat mukofotlari bilan taqdirlash va ommaviy e'tirof etilsa O'zbekistonda ham vasiylik va homiylik institutlarini yanada rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. — Lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-oktabrdagi PF-5869-son Farmoni. — Lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-fevraldagi PQ-5003-son Qarori. — Lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PQ-187-son Qarori. — Lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuni. — Lex.uz
6. "Guardianship and Trusteeship" haqida ma'lumot — UNICEF Global Report, 2022
7. AQSh Vasiylik va Homiylik Agentligi (US Department of Health and Human Services) statistik ma'lumotlari — acf.hhs.gov

Internet saytlari:

1. Lex.uz — O'zbekiston Respublikasi Qonunlari portali
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti
3. UNICEF rasmiy sayti
4. AQSh Sog'liqni Saqlash va Inson Xizmatlari Departamenti
5. World Bank Children Protection Reports